

TILSHUNOSLIKDA MATN TUSHUNCHASI VA UNING LINGVISTIK JIHATLARI
ПОНЯТИЕ ТЕКСТА И ЕГО ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ В ЯЗЫКОЗНАНИИ
THE CONCEPT OF TEXT AND ITS LINGUISTIC ASPECTS IN LINGUISTICS

Turdiyeva Xojiyaxon

2-bosqich magistrant, Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqola matn tushunchasining lingvistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda matnning ta'riflari, shakliy va semantik xususiyatlari, shuningdek, diskurs va matn o'rtasidagi bog'liqlik masalalari ko'rib chiqilgan. O'zbek va xalqaro lingvistikada matnni tadqiq etishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена изучению лингвистических особенностей текста. Исследуются определения текста, его формальные и семантические характеристики, а также вопросы взаимосвязи дискурса и текста. Рассматриваются основные направления изучения текста в узбекской и мировой лингвистике.

Abstract

This article is devoted to the study of the linguistic features of the text. It examines definitions of the text, its formal and semantic characteristics, and issues of the interconnection between discourse and text. The main directions of text research in Uzbek and global linguistics are considered.

Kalit so'zlar: matn, tilshunoslik, diskurs, semantika, filologiya.

Ключевые слова: текст, лингвистика, дискурс, семантика, языкознание.

Keywords: text, linguistics, discourse, semantics, philology.

KIRISH

So‘nggi yillarda tilshunoslikda matn tushunchasi va uning lingvistik jihatlarini o‘rganish alohida dolzarb mavzu bo‘lib, bu soha zamonaviy tilshunoslikning turli fan va texnologiyalar bilan integratsiyasini, shuningdek, tilning ijtimoiy va madaniy kontekstlarini chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. Matn tushunchasining rivojlanishi tilning funksional xususiyatlarini kengroq tushunish, uning kommunikativ va kontekstual aspektlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda matnning tuzilishi, lingvistik, stilistik va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish ehtiyoji tobora kuchaymoqda, bu esa tilshunoslikda yangi tahlil usullarini ishlab chiqishni va matnni yanada chuqurroq tadqiq etishni talab qilmoqda. Shunday qilib, matn tushunchasining turli tahlil yondoshuvlarini o‘rganish tilshunoslik sohasida yangi ilmiy istiqbollarni ochib beradi va tilning dinamik rivojlanish jarayonlarini yanada to‘liqroq tushunishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLIL VA METODLAR

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da matn tushunchasiga quyidagicha talqin qilinadi: “Matn arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst degan ma‘nolarni anglatadi va yozuvda bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat deya izohlanadi.” [4,556 b] Demak, matn nafaqat ma‘lum bir mazmunni ifodalovchi, balki yozuvda o‘zining tuzilishi va shakli bilan alohida ahamiyat kasb etadigan kommunikativ birlik sifatida qaraladi.

O‘zbek olimi A.Hojiyevga ko‘ra, “matn – yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman nutq parchasi; tekst.” [5,61 b] Bu yondoshuv matnning asosiy xususiyatlarini – uning yozuvda ifodalangan nutq ekanligini va mazmunining to‘liq bo‘lishi uchun biror nuqta yoki parchani tashkil etishini anglatadi. Biroq, matnni faqat nutq parchasi sifatida ko‘rish cheklangan bo‘lishi mumkin, chunki matn o‘z ichiga muloqot, kontekst va pragmatik jihatlarini ham oladi, bu esa faqat yozuvga qaratilgan ta‘rifdan kengroq yondashuvni talab qiladi.

E.Qilichev o‘zining “Matnning lingvistik tahlili“ deb nomlangan asarida “Matn – hamma elementlari o‘zaro zich aloqada bo‘lgan va avtor nuqtai nazaridan ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan nominativ estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma” ekanligini ta‘kidlaydi. [2,30 b] Demak, matn ko‘p qatlamli va kompleks xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. U faqat axborot uzatishdan iborat emas, balki estetik va maqsadga yo‘naltirilgan jihatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Ingliz tilshunosi Roger Fovler esa: “Matn jumalardan iborat, lekin jumalarni tuzish qoidalaridan tashqari, matn tuzishning alohida tamoyillari mavjud.”,-degan g‘oyani ilgari suradi. [3,59 b] Bu, matnning kommunikativ va struktural jihatlarini chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi, chunki matnning tuzilishi faqat grammatik qoidalar bilan cheklanmaydi.

“As M.M. Bakhtin stated, text is an initial point of any humanitarian science (EaxTHH, 1986:474).” M.M. Baxtin ta'kidlaganidek, matn har qanday gumanitar fanlarning boshlang'ich nuqtasidir. [1,16 b]

NATIJA VA MUHOKAMA

Har bir olim matnning o'ziga xos jihatlarini ta'kidlagan holda, uni yanada kengroq va chuqurroq tahlil qiladi. Matnning tahlili faqat grammatik yoki sintaktik jihatlarini ko'rib chiqish bilan cheklanmasligi kerak. Matnning tuzilishi, uning muloqotdagi rolini, kontekstual ma'nolarini va o'quvchi bilan bog'lanish usulini o'rganish, uning to'liq mazmunini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, matnni pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilish, uning kommunikativ maqsadini va auditoriya bilan aloqasini yaxshiroq anglash imkonini beradi. Matn, shuningdek, madaniy, ijtimoiy va estetik qatlamlarga ega bo'lib, bu uning ko'p qirraliligini va keng kontekstda tahlil qilinishini taqozo etadi. Shuning uchun matnni o'rganishda ko'p qirrali yondoshuv zarur bo'lib, uning lingvistik, pragmatik, madaniy va psixologik jihatlarini hisobga olish kerak. Matnga berilgan ta'riflar asnosida biz uni quyidagi kategoriyalarga ajratishimiz mumkin:

1. Matnning tuzilishi va shakli:

O'zbek tilining izohli lug'ati va A. Hojiyev tomonidan taklif qilingan ta'riflar, matnning yozuvdagi ifodasi va nutq parchasi sifatidagi xususiyatlarini ta'kidlaydi. Bu yondashuv matnni asosan struktura, yozuv va nutq sifatida ko'rishga imkon beradi. Matnning asosiy vazifasi – ma'lum bir mazmuni yozma shaklda ifodalash. Biroq, bu nuqtai nazar matnni faqat yozuvdagi nutq parchasi sifatida ko'rishga olib keladi, bu esa uning kengroq va murakkab jihatlarini e'tibordan chetda qoldirishi mumkin.

2. Matnning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilganligi:

E. Qilichevning ta'rifida matnning murakkab tuzilmasi va avtorning maqsadga yo'naltirilganligi ko'rsatiladi. Bu yondashuv matnni faqat axborot uzatishdan iborat emas, balki uning estetik va kommunikativ maqsadlar bilan ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun matnni o'rganish faqat uning grammatik va sintaktik tuzilishiga qaratilgan tahlil bilan cheklanmaydi, balki uning ijtimoiy va madaniy kontekstini ham hisobga olish zarur.

3. Matnning kommunikativ jihatlarini:

Roger Fovlarning fikri matnning tuzilishida alohida tamoyillar borligini ta'kidlaydi. Bu, matnni faqat jumalardan iborat yoki grammatik qoidalar bilan cheklangan tuzilma sifatida emas, balki uning kommunikativ va pragmatik jihatlarini chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Jumalar bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lib, matnning maqsadi va mazmunini aniqroq

tushunishga yordam beradi.

4. Matnning gumanitar fanlar bilan bog'liqligi:

M.M. Bakhtin ta'kidlaganidek, matn har qanday gumanitar fanlarning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, uning tahlili tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya va boshqa sohalarda chuqur ilmiy izlanishlarni boshlash uchun zarurdir. Matnning gumanitar fanlar bilan bog'liqligi, uni faqat tilshunoslik doirasida emas, balki kengroq ijtimoiy va madaniy kontekstda ham o'rganish zaruriyatini taqozo etadi.

Matnning **tuzilishi va shakli** uning asosiy strukturasi tashkil etadi, ya'ni yozuvdagi nutq ifodasi, jumlar va so'zlarning o'zaro aloqasi orqali ma'lum bir mazmunni ifodalaydi. Bu kategoriya matnni faqat grammatik tuzilma sifatida ko'rish bilan cheklanmaydi, balki uning barcha elementlarining bir-biri bilan bog'lanishi va matnning umumiy tuzilishini aniqlashni talab qiladi. Shuningdek, matnning **maqsadga yo'naltirilganligi** ham muhimdir, chunki matn har doim muallifning maqsadiga xizmat qiladi. Bu maqsad axborot uzatish, estetik ta'sir ko'rsatish yoki o'quvchini ma'lum bir fikrni qabul qilishga undash bo'lishi mumkin. Matnning **kommunikativ jihatlari** uning o'quvchi bilan muloqot qilishdagi o'rnini belgilaydi. Matn nafaqat axborot uzatadi, balki o'quvchining fikrini shakllantiradi va uning hissiy holatiga ta'sir qiladi. Nihoyat, matnning **gumanitar fanlar bilan bog'liqligi** uni tilshunoslikdan tashqariga chiqib, sotsiologiya, psixologiya, falsafaga qadar bo'lgan sohalar bilan chambarchas bog'laydi. Bu, matnni faqat tilshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki kengroq ilmiy va madaniy kontekstda tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi.

XULOSA

Matn tushunchasi va uning lingvistik jihatlari tilshunoslikda katta ahamiyatga ega bo'lib, uning chuqur tahlili tilning kommunikativ imkoniyatlarini to'liq anglashga yordam beradi. Matn nafaqat yozuvdagi nutq ifodasi, balki uning shakliy, semantik va pragmatik jihatlari orqali ham axborot uzatadi. Matnni o'rganish, uning tuzilishi, maqsadga yo'naltirilganligi, kommunikativ vazifalari va gumanitar fanlar bilan bog'liqligi kabi ko'p qirrali yondoshuvlarni talab qiladi. Matnning semantik xususiyatlari uning aksologik (qadriyat) jihatlarni aniqlash imkonini berishi bilan, uning ijtimoiy va madaniy kontekstini to'liq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, matnning tahlili tilshunoslikning turli sohalarini, masalan, psixologiya, sotsiologiya, falsafa kabi gumanitar fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Matnning kommunikativ jihatlarni chuqurroq o'rganish, uning maqsadlarini, auditoriya bilan aloqasini va uning o'quvchi yoki tinglovchi bilan muloqotdagi rolini yanada aniqlashtirishga imkon yaratadi. Shunday qilib, matnning lingvistik va pragmatik jihatlarni o'rganish zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, matnning samarali va aniq ifodasini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. ASHUROVA D.U. GALIEVA M.R.TEXT LINGUISTICS TASHKENT-2016. 16 b.
2. Hojaliyev, I. (2021). Methodology and significance of meaning in translation of uzbek literature.30 b.
3. R,Fowler.Language in the News: Discourse and ideology in the Press, -London/New York.1991. 59 b.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти, 2006.556 б.
5. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2002.61 б.